INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH TARMOQLARIDA BOSHQARUV SALOHIYATINI OSHIRISHNI ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARI

[1]Qalmuratov Baxtiyar Seytmuratovich, [2]Allamuratova Gulchexra Maxsetbayevna
[1]i.f.d., professor Berdaq nomidagi QQDU “Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, [2]“Menejment” mutaxassiligi 2 bosqich tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.15267268

Annotatsiya. *Dunyo miqyosida iqtisodiy rivojlanishning eng muhim qonuniyatlaridan biri, iqtisodiy o‘sishning o‘zaro bog‘liqligi va milliy iqtisodiyotda xizmatlarning tobora ortib borayotgan roli hisoblanadi. Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish sohasining o‘ziga xos xususiyatlari va iqtisodiyotdagi o‘rnini tahlili, xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida boshqaruv salohiyatini oshirishni ilg‘or xorijiy tajribalari o‘rganilib, ushbu tajribalarni mamlakatimizni xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini salohiyatini samarali boshqarishda qo‘llanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *xizmat, xizmat ko‘rsatish, xizmat ko‘rsatish tarmoqlari, boshqarish, salohiyat.*

Аннотация. *Одним из важнейших законов экономического развития во всем мире является взаимозависимость экономического роста и возрастающей роли услуг в национальной экономике. В статье анализировано специфические особенности сферы услуг в нашей стране на сегодняшний день и ее место в экономике, изучается передовой зарубежный опыт повышения управленческого потенциала в сфере услуг, а также дано предложения и рекомендации по применению зарубежного опыта для эффективного управления потенциалом сферы услуг нашей страны.*

Ключевые слова: *услуга, предоставление услуг, сервисные сети, управление, потециал.*

Abstract: *One of the most important laws of economic development throughout the world is the interdependence of economic growth and the increasing role of services in the national economy. The article analyzes the specific features of the service sector in our country today and its place in the economy, studies advanced foreign experience in increasing management potential in the service sector, and provides proposals and recommendations for the application of foreign experience for the effective management of the potential of the service sector in our country.*

Key words: *service, service provision, service networks, management, potential.*

KIRISH

Iqtisodiy munosabatlarning globallashuvi sharoitida jahon amaliyotida xizmatlar sohasini innovatsion rivojlantirish barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Xizmatlar sohasini rivojlantirishning jahon amaliyoti tahlili ko‘rsatishicha, ushbu sohani rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash orqali mamlakatlar iqtisodiyotining tashqi iqtisodiy xavf-xatarlardan himoyalash imkoniyati ortib, jadal sur’atlarda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatlar milliy iqtisodiyotida xizmatlar sohasining tutgan o‘rnini baholash, uni tashkil etish, jumladan aholiga xizmatlar ko‘rsatish sifatini oshirish, xizmatlar sohasini rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar va ularning ta’sir doiralarini baholash, ushbu sohani texnologik jihatdan takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar , Keyns J.M., Marshall A., Fisher M., Xaksever K.X., Render B.R., Rassel R.S., Merdik R.G., Shumpeter Y.A. va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan[1] kabi uzoq xorijlik olimlar tomonidan o‘rganilgan.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan, Pardayev M.Q., Po‘latov M.E., Muxammedov M.M., Zaynalov D.R., Mirzayev Q.J., Tuxliyev I.S., Arabov N.U., Safarov B.Sh., Utemuratova G., Jumanazarov O., Ismaylov B[2] kabilarning va boshqalarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan. Ammo yuqorida keltirilgan olimlarning asarlarida xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini samarali rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmining ayrim jihatlari o‘rganilgan. Shuningdek, xizmat ko‘rsatish jaraènlarida ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari kompleks tadqiqot sifatida qisman o‘z aksini topgan. Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu masala yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar tahlili xizmatlar ko‘rsatish sohasini innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tkazish, jumladan, xizmatlar ko‘rsatish jarayonlarini tashkil etishda zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanishni rag‘batlantirish, mamlakatda innovatsion xizmatlar ko‘rsatish infratuzilmasini shakllantirish orqali ko‘rsatilayotgan xizmatlarning global raqobatbardoshligi ko‘rsatkichini yaxshilash kabi ustuvor maqsadlarga erishishga e’tibor bergan. Biz o‘z tadqiqotimizda innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida boshqaruv salohiyatini oshirishni ilg‘or xorijiy tajribalarini o‘rganishga harakat qildik va ushbu tajribalarni mamlakatimiz xizmat ko‘rsatish sohasida qo‘llanish mumkin bo‘lgan taklif va tavsiyalarni berdik.

TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI

Maqolani yozish jarayonida tizimli tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, statistik va solishtirma tahlil, abstrakt-mantiqiy yondashuv kabi metodlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon savdo tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, AQSH iqtisodiyotida ko‘rsatilayotgan xizmatlarning aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi hajmi 2023-yilda 47745,7 doll.ni tashkil etgan. AQSH xizmatlar ko‘rsatish sohasida aholiga moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish boshqa sohalarga nisbatan keng tarqalgan bo‘lib, jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining 40,4 foizi aynan ushbu sohaga to‘g‘ri keladi. Tahlillarga ko‘ra, taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyotida aholiga moliyaviy

[1] Keyns Dj.M. Общаya teoriya zanyatosti, protsenta i deneg / Per. sangl. prof. N.N.Lyubimova, pod. red. d.e.n., prof. L.P.Kurakova. – M.: MIEMP, 2010; Marshall A. Prinsipы ekonomicheskoy nauki / A.Marshall: V 3 t. - M.: Progress-T.Z. 1984. -119 s.; Regional labo rmarkets. Analitical contributions and cross-national comparisons. Ed. by. M.Fischer and P.Nijkamp. - Elsevier Science Publishing Co, 1987. -500 p.; Upravleniye i organizatsiya v sfere uslug: teoriya i praktika: Service Management and Operation – 2-ye mejdunarod. izd. (per. s angl pod nauch. red. V.V.Kulibanovoy) / K.X.Xaksever, B.R.Render, R.S.Rassel, R.G.Merdik. – SPb i dr.:PITER, PITER bux, 2002. – 751 s.; Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. Kapitalizm, sotsializm i demokratiya [Tekst] / Y. Shumpeter: per. s angl. predisl. V.S. Avtonomova. – M.: EKSMO, 2007. – 864 s

[2]. – Pardayev M.Q., Isroilov J.I., G‘apparov A.Q. Xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy tahlilni takomillashtirish muammolari. Risola. Samarqand. “Zarafshon”, 2009. - 66 b.- 4,1 b.t.; Po‘latov M.E., Mirzayev Q.J., Sultonov Sh.A., Shavqiyev E. Global iqtisodiy rivojlanish (turizm iqtisodièti).O‘quv qo‘llanma.T.: Fan va texnologiya, 2018. − 296 b.; Muxammedov M.M. i dr. Ekonomika torgovli. Samarqand.1998.s.282; Zaynalov D.R. Uslugi i servis kak ekonomicheskaya kategoriya. // “Servis” jurnali. Samarkand: 2009, 1-son. 70-77 betlar. – 0,6 b.t.; Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 332 b.; Arabov N.U., Artikov Z.S. Servis korxonalarida xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish. Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish jurnali//Samarqand, SamDU, № 1, 2021, 153-164 b.; Utemuratova G.X. Xizmat ko‘rsatish sohasida davlat-xususiy sherikchiligining shakllari, modellari va mexanizmlari// Iqtisodiyot va moliya jurnali, 2021-yil № 10 (46), B.2-12.;

xizmatlar ko‘rsatish boshqa sohalarga salmoqli ulushga ega sohalardan hisoblanadi[3]. Xususan, Germaniya iqtisodiyotida aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi xizmatlar ko‘rsatish hajmining ulushi 2023-yilda 34630,6 doll.ga teng bo‘lgan bo‘lsa, jami xizmatlar tarkibida moliyaviy xizmatlarning ulushi 41,7 foizni tashkil etgan (1-jadval).

1-jadval

Ayrim mamlakatlarda aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlarning hajmi bo‘yicha ko‘rsatkichlari, 2023-yil[7]

Xizmatlar ko‘rsatish sohalari	AQSH		Germaniya		Rossiya		O‘zbekiston	
	AQSH doll.da	Foizda	AQSH doll.da	Foizda	AQSH doll.da	Foizda	AQSH doll.da	Foizda
Jami xizmatlar	**47 745,7**	**100**	**34 630,6**	**100**	**6 761,3**	**100**	**711,3**	**100**
shu jumladan:								
Savdo va umumiy ovqatlanish	9 168,1	19,2	5 526,6	16,0	2 346,9	35,0	162,4	22,8
Ta’lim	9 406,3	19,7	7 264,9	21,0	666,5	9,9	21,1	2,9
Sog‘liqni saqlash							7,5	1,1
Transport	4 226,9	8,9	3 164,4	9,1	935,2	13,8	178,9	25,2
Aloqa va informatson xizmatlar (IT)							40,6	5,7
Moliyaviy xizmatlar	19 288,8	40,4	14 440,6	41,7	1 289,9	19,1	76,7	10,8
Davlat xizmatlari	2 917,1	6,1	2 183,9	6,3	1 117,9	16,5	-	-
Boshqa xizmatlar	2 738,5	5,7	2 050,2	5,9	387,0	5,7	224,1	31,5

1-jadval ma’lumotlari tahliliga ko‘ra, mamlakatimizda xizmatlar ko‘rsatish sohasining rivojlanish tendensiyalari jahon amaliyotidan sezilarli darajada ortda qolayotganini kuzatish mumkin. Jumladan, mamlakatimizda ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmining 2024-yil yakunlariga ko‘ra YAIMning tarmoq tuzilmasida kichik o‘zgarishlar qayd etildi. 2023-yilga nisbatan YAIM tarkibida xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi 46,2% dan 47,4% ga, sanoat 25,3% dan 26,4% ga oshdi, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligining ulushi 21,2% dan 19,2% ga, qurilishniki 7,3% dan 7% ga kamaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlarining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi 2,4% ga, axborotlashtirish va aloqa sohasi 2,7% ga, transport va saqlash sohasi 5,4% ga yetdi.



1-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAIM tarkibi[9]

Mamlakatimizda ko‘rsatilayotgan xizmatlarning aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi hajmi AQSHga nisbatan 61,1-marta, Germaniyaga nisbatan esa 51,5-marta kamligini inobatga olgan holda, respublikada ushbu sohani rivojlantirish imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayotganligi bo‘yicha xulosalarni olish mumkin bo‘ladi.



2-rasm. Xizmatlar ko‘rsatish sohasining mamlakatlar YAIM va moddiy ishlab chiqarish sohasidagi ulushi (foizda, 2024-y.)[10]

Shuningdek, xizmatlar ko‘rsatish sohasining mamlakatlar YAIM hajmidagi ulushi bo‘yicha Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, taraqqiy etgan mamlakatlar ko‘rsatkichlari qariyb 70 foizdan yuqori ko‘rsatkichni qayd etsa, bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlar guruhida ushbu ko‘rsatkich 65 foizdan kam ulushga ega hisoblanadi. Tahlillar ko‘rsatishicha, 2024-yilda AQSH YAIM hajmi tarkibida xizmatlar ko‘rsatish sohasining ulushi 80,5 foizga, Germaniyada 70,2 foizga, Rossiyada 63,3 foizga teng bo‘lgan bo‘lsa, mamlakatimizda ushbu ko‘rsatkich 38,6 foizni tashkil etdi. Jumladan, xizmatlar ko‘rsatish sohasining moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari sohasidagi ulushi bo‘yicha

ko‘rsatkichlar tahliliga ko‘ra, yuqoridagi tendensiyaga aks holatni kuzatish mumkin bo‘ladi. Bunda bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda moddiy ishlab chiqarish sohasida xizmatlar ko‘rsatishning ulushi 35 foizdan yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Ushbu holat bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan va shakllanayotgan mamlakatlarda postindustrial jamiyatni shakllantirish bilan bir qatorda uni rivojlantirishga qaratilgan islohotlarga ustuvorlik qaratilayotganligi bilan izohlanadi(2-rasm).



3-rasm. Ayrim mamlakatlarda aholi xarajatlari tarkibida xizmatlarning ulushi, foizda[6]

Xizmatlar ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning taraqqiy eigan mamlakatlar amaliyoti tahliliga ko‘ra, ushbu mamlakatlar guruhida aholining xizmatlar ko‘rsatish sohasidan foydalanish imkoniyatlari bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlarga qaraganda sezilarli darajada yuqori hisoblanadi[4]. Xususan, AQSHda aholi xarajatlari tarkibida xizmatlarning ulushi 70,2 foizni, 62,9 foizni tashkil esa, Rossiyada ushbu ko‘rsatkich 45,3 foizga, O‘zbekistonda bo‘lsa 20,0 foizga tengdir (3-rasmga qarang). Ushbu vaziyatdan kelib chiqqan holda, taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyotida aholining xizmatlardan foydalanish bo‘yicha xarajatlarining ularning jami xarajatlaridagi ulushi 50 foizdan yuqori degan xulosaga kelish mumkin bo‘ladi.

Shu o‘rinda taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyotida xizmatlar sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni tahlil qilish lozim deb hisoblaymiz. Jumladan, U.Vitt va K.Grosslar o‘z ilmiy tadqiqotlarida 1970-2005-yillarda AQSHda transport xizmatlari ko‘rsatish sohasiga muqobil energiya vositalarini joriy etilishi hisobiga xizmatlar ko‘rsatish sohasining innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tkazish orqali ushbu sohadagi qo‘shilgan qiymat hajmini oshirishga erishilganligi isbotlangan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, AQSHda transport xizmatlari ko‘rsatish sohasida muqobil energiyadan foydalanish ushbu sohadagi mehnat samaradorligi ko‘rsatkichining keskin ortishiga olib kelgan. Keyinchalik esa hukumat tomonidan texnologik innovatsiyalarni turizm, bank-moliya, tibbiyot, ta’lim va shu kabi boshqa xizmatlar sohalariga jalb etilishi boshlangan. Natijada mamlakatda xizmatlar ko‘rsatish sohasi innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tgan holda sohada yaratilayotgan qo‘shilgan qiymat hajmi ortib, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylanga[6].

Xizmatlar ko‘rsatish sohasini innovatsion rivojlantirish orqali yuqori iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichiga erishgan mamlakatlardan yana biri bu Yaponiya hisoblanadi. Yaponiyalik iqtisodchi olim F.Kyoji o‘z ilmiy izlanishlarida mamlakatda xizmatlar sohasini innovatsion rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini tadqiq etgan holda, uning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini baholagan. 1868-1912-yillar Yaponiya hukumati tomonidan mamlakat yoshlarining xorijiy mamlakatlarga bilim olish uchun davlat hisobidan yuborilishi mamlakatda bilimlarni o‘zlashtirish imkoniyatini oshirgan. 1950-1960-yillarda mamlakatda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi sonining keskin

ortishi aholi bandligi sohasidagi muammolarni vujudga keltira boshlagan. Natijada mamlakatda o‘zlashtirilgan bilimlar hisobiga xizmatlar ko‘rsatish sohasini noodatiy shaklda ko‘rsatish, bunda zamonaviy texnika va texnoloiyalardan foydalanish amaliyotiga o‘tishga ustuvorlik qaratilgan. Xususan, 1989-yildan boshlab Yaponiyada oilaviy restoranlar va oziq-ovqat tarmoqlari bo‘yicha xizmtlar ko‘rsatishga innovatsion texnologiyalarni joriy etilishi hisobiga ushbu xizmat ko‘rsatish bo‘yicha biznes yuritish shaklining o‘rtacha yillik qiymati mamlakatda 138 mlrd. AQSH doll.ga teng bo‘ldi. Xizmatlar ko‘rsatish sohasiga innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha davlat dasturlarining muntazam amalga oshirilishi hisobiga, 2002-yilga kelib mamlakat YAIM hajmida xizmatlar ko‘rsatish sohasining ulushi 78 foizga yetgan [5].

Jahon banki statistik ma’lumotlari tahliliga ko‘ra, Yaponiya xizmatlar eksporti hajmi barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, 2000-2024-yillarda 3-martda ortgan. Bugungi kunda Yaponiya moliya, sug‘urta, ta’lim, tibbiyot kabi xizmat ko‘rsatish sohalarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha jahonda yetakchi mamlakatlar qatoriga kiradi. Xizmatlar ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning jahon amaliyoti tahliliga ko‘ra, bugungi kunda innovatsion xizmatlar ko‘rsatish amaliyotiga o‘tgan mamlakatlar jahonda xizmatlar eksporti hajmi bo‘yicha yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Bunda turistlarning ushbu mamlakatlarga oqimi ko‘payishi hisobiga, mamlakatga kapital oqimi hajmining ortishiga erishiladi. Xizmatlar ko‘rsatish sohasini innovatsion uslulda rivojlantirish orqali mamlakatlar milliy iqtisodiyotining barqaror o‘sish ko‘rsatkichlariga erishish qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Mazkur holat xizmatlar ko‘rsatish sohasini innovatsion rivojlantirish, jumladan, ushbu sohaga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, xizmatlar ko‘rsatishda intellektual texnologiyalarga asoslanishi ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifat jihatdan takomillashuvi va mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlarining ortishiga olib keladi, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Tahlillarga ko‘ra, xizmatlar sohasini innovatsion usulda rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasida yaratilayotgan qo‘shilgan qiymat hajmining ortishi bilan bir qatorda, tashqi turistik oqimning ortishi orqali xizmatlar eksporti hajmini oshishiga olib keladi.

Ispaniyada mahalliy hokimiyat organlari tomonidan o‘z hududida innovatsion xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan korxonalar, jumladan, turistik faoliyatni amalga oshirish bo‘yicha litsenziyalash, ro‘yhatga olish, turizmni rivojlantirish bo‘yicha mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqish ishlari amalga oshiriladi. Mahalliy hokimiyatlarda xizmatlar ko‘rsatish sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqishda Ispaniya turizmni rivojlantirish kengashi tavsiyalariga asoslaniladi. Turizmni rivojlantirish kengashi mahalliy hokimiyat organlari uchun xizmatlar ko‘rsatish sohasini innovatsion rivojlantirishga.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Xizmatlar ko‘rsatish sohasini innovatsion usulda rivojlantirishning jahon amaliyoti qiyosiy tahlili asosida keyingi yillarda mamlakatimizda ushbu sohasini isloh etishda ijodiy foydalanish mumkin bo‘lgan quyidagi jihatlar aniqlandi:

- respublika, jumladan viloyatlar kesimida xizmatlar ko‘rsatish sohasini innovatsion rivojlantirish bo‘yicha byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarni tashkil etish (AQSH);
- viloyatlar kesimida innovatsion xizmatlar ko‘rsatish salohiyatdan to‘liq foydalanish imkoniyatini tadqiq etish asosida xizmatlar ko‘rsatish sohasini innovatsion rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish (Fransiya, AQSH);
- respublika viloyatlari kesimida innovatsion xizmatlar ko‘rsatishning afzalliklaridan kelib chiqqan holda, ixtisoslashuv yo‘nalishlarini aniqlash (AQSH);

- xizmatlar ko‘rsatuvchi iqtisodiy subyektlar faoliyatini innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tkazish (Yaponiya, AQSH, YEI mamlakatlari);

- innovatsion xizmatlar ko‘rsatish, jumladan, innovatsion turistik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi iqtisodiy subyektlar faoliyatini imtiyozli shartlar asosida kreditlash dasturlarini ishlab chiqish (AQSH);

- innovatsion xizmatlar, jumladan, innovatsion turistik mahsulot va xizmatlarning sifati va narxlari ustidan nazoratni o‘rnatish, uni litsenziyalash amaliyotini jahon standartlari asosida takomillashtirish (YEI mamlakatlari);

- xizmatlar ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda zamon talablariga mos bo‘lgan, sohani innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tishini ta’minlovchi davlat va xususiy sheriklik mexanizmini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish;

- xizmatlar ko‘rsatish sohasi infratuzilmasini modernizatsiyalash orqali innovatsion rivojlanish uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish;

- mamlakatimiz xizmatlar ko‘rsatish sohasini innovatsion rivojlantirishda xalqaro moliyaviy tashkilotlarning, jumladan xorijiy investorlarning mablag‘laridan foydalanishni rag‘batlantirish va h.k.

Fikrimizcha, yuqorida bildirilgan takliflarni inobatga olgan holda mamlakatimizda xizmatlar ko‘rsatish sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish uzoq muddatli istiqbolda ushbu sohaning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyatini oshirgan holda, barqaror rivojlanishiga erishish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI

1. Kyoji F. Service sector productivity in Japan: The key future economic growth. RIETI Policy discussion paper series 10-p-007, 2010. P. 23 https://www.rieti.go.jp/jp/publications/pdp/10p007.pdf
2. Witt U. The rise of the “service economy” in the second half of the twentieth century and its energetic contingencies. Journal of Evolutionary Economics. Vol. 30. 2020. Pp. – 231-246. https://doi.org/10.1007/s00191-019-00649-4
3. Алламуратова Г. М. Хизмат кўрсатиш соҳаси корхоналари фаолиятини баҳолашнинг услубий асослари// Ўзбекистон Республикаси фанлар академияси Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.- №7(2), Хоразм Маъмун академияси, 2024 й 8-14 б
4. Алламуратова Г. М. Особенности развития сферы услуг и основы управления// Журнал Экономика и предпринимательство, № 5, 2024 г. Россия. 910-913б
5. Калмуратов Б., Бекимбетов Д. Социально-экономический базис для формирования стратегии развития сферы услуг и его роль в развитии экономики//Sanlı ekonomika sharayatında aymaqta, isbilermenlik, innovaciyalıq texnologiyalar hám sanaat infrastrukturasın jedel pátte rawajlandırıw perspektivaları: mashqala hám seshimler atamasındağı Respublikalıq ilimiy-ámeliy konfereciya . 2023 jıl 10-oktyabr 569-571 betler
6. Kalmuratov B.S., Allamuratova G.M. The role of services in the socio-economic development of the region// Қорақалпоғистонда фан ва таълим Нөкис. 2024 й 3/2 (43), 452-456 б
7. Исхакова С.А. Влияние развития сферы услуг на уровень доходов ее работников. // Экономика труда. – 2021. – Том 8. – № 2. – С. 159-174. Doi: 10.18334/et.8.2.111774 https://1economic.ru/lib/111774

8. Жаҳон савдо ташкилоти маълумотлари асосида https://www.wto.org/english/res_e/statis_e/statis_e.htm
9. **Stat.uz//** Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги статистика агентлиги маълумотлари
10. Халқаро меҳнат ташкилоти https:www.ilo.org/ilostat; List of countries by GDP.; Россия Федерацияси ҳукумати қошидаги аналитик марказ https:www.ac.gov.ru маълумотлари